

O'ZBEK VA SHARQ XALQ TABOBATIDA ISIRIQNING QO'LLANILISHI HAQIDAGI FIKRLAR

Maxmudov Zafar Mardanovich

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti Tillar kafedrasasi assistenti

Akramov Rustambek Ashraf o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Davolash ishi fakulteti talabasi

Annotatsiya: Isiriq o'simligining o'rni sharq tabobatida yuqori o'rinni egallaydi, uning xalq tamonidan hurmat bilan foydalanilishi dunyo olimlari tomonidan o'rganishlarga sabab bo'lmoqda. Ushbu maqolada o'zbek va sharq tabobatida faol qo'llaniluvchi isiriq o'simligining ilmiy asoslari haqida fikr yuritishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: isiriq, alkaloid, xalq tabobati, qaynatma, damlama, tutatqi, dorivor o'simlik, zaharli o'simlik, davo, dizinfektsiya.

OPINIONS ON THE USE OF THE BITE IN UZBEK AND EASTERN FOLK MEDICINE

Annotation: The place of the bite plant occupies a high place in Eastern medicine, the respectful use of its folk tobacco is causing studies by scientists around the world. In this article, we tried to reflect on the scientific basis of the bite plant, which is actively used in Uzbek and Eastern medicine.

Keywords: bite, alkaloid, folk medicine, decoction, tincture, incense, medicinal plant, poisonous plant, cure, disinfection.

МНЕНИЯ О ПРИМЕНЕНИИ ЛАДАНА В УЗБЕКСКОЙ И ВОСТОЧНОЙ НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ

Аннотация: Роль ладана занимает высокое место в восточной медицине, его уважительное народное использование вызывает исследования ученых всего мира. В этой статье мы попытались осмыслить научные основы растения ладана, которое активно используется в узбекской и восточной медицине.

Ключевые слова: ладан, алкалоид, народная медицина, отвар, настойка, ладанник, лекарственное растение, ядовитое растение, лечение, дезинфекция.

Isiriq ([lotincha](#) farmatesvtik nomi: *Peganum*, botanik nomi *Péganum hármala*) - tarkibida [alkaloidlar](#) bo'lgan, [xalq tabobatida shifobaxsh](#) vosita sifatida turli yo'llar bilan (jumladan, tutatib *-fumigatio*) foydalanib kelinadigan, isiriqdoshlar (*Zygotyphaceae*) oilasi *Garmala (Peganum)* turiga mansub ko'p yillik, dorivor

xususiyatlarga ega, zaharli, yovvoyi [o'simlik](#). Ilmiy nomi qadimgi yunon tilidan kelib chiqqan *πήγανον* - “*ruta*”, chunki *garmala* ko'pincha bog' ruta bilan adashtirilgan; *harmala* - o'simlikning arabcha nomidan olingan. Eron, Ozarbayjon va Markaziy Osiyo mamlakatlarida “isiriq” (ozorbayjoncha *uzarlik*, turkmancha *yuzärlik*, qozoqcha *admiraspan*, qirg'izcha *ysirik*, tojikcha *hazor ispand*, o'zbekcha *isiriq*) tutatqi sifatida binolarni fumigatsiya qilish uchun, shuningdek, yovuz ruhlarni quvib chiqarish marosimlarida ishlatiladi. U Sharqiy Yevropa, Shimoliy Afrika va Markaziy Osiyoning yarim qurg'oqchil cho'llarida o'sadi, bo'yi 60-70 sm, [poyasi](#) bir nechta, sershox, [barglari kulrang](#) yoki [yashil](#), [gullari](#) sarg'ish-oq, shoxining uchida joylashgan, mevasi dumaloq [ko'sakchali](#), uning 6 [turi](#) ma'lum. [O'zbekistonda](#) (*Peganum harmala*)ning bir turi o'sadi. [Cho'l](#) va yarim cho'llarda, aholi yashaydigan yerlarda, ekinlar orasida va [tog'](#) yon bag'irlarida uchraydi. Urug'idan [jun gazlama](#) va [shoyilar](#) uchun yorqin rangli (sariqdan qizilgacha) bo'yoq olinadi. Ushbu bo'yoq ilgari turk bo'yog'i deb nomlangan, chunki Turkiyada u milliy shlyapalar – fezlarni bo'yash uchun ishlatilgan. Gilam ishlab chiqarish hunarmandchiligida harmala bo'yog'i hali ham ishlatiladi.

Botanikada isiriqning quyidagicha nomlari mavjud:

Harmala multifida All.;

Harmala peganum Crantz;

Harmala syriaca Bubani;

Mesembryanthemum caspicum S.G.Gmel.;

Peganon harmalum St.-Lag.;

Peganum dauricum Pall.;

Peganum harmala subsp. multisecta Maxim.;

Peganum harmala seu garamantum Maire;

Peganum harmala seu multisectum Maxim.;

Peganum harmala seu rothschildianum (Buxb.) Maire;

Peganum rothschildianum Buxb..

Peganum harmala seu grandiflorum Hadidi;

Peganum harmala seu stenophyllum Boiss..

O'simlikning ildizida 3,3 % gacha, poyasida 3,57 % gacha, bargida 4,96 % va urug'ida 6,60 % gacha alkaloidlar, xinazolin va indol hosilalari borligi qayd qilingan bo'lib, ular yig'indisidan garmalin, garmin (banisterin), garmalol va L-peganin (vazitsin), so'nggi yillarda esa pegamin, peganol, deoksipeganin, peganidin kabi moddalar ajratib olinadi. Isiriq qadim zamonlardan beri sharq xalqlari tabobatida qo'llanilib kelinayotgan shifobaxsh giyohlardan hisoblanadi. Osiyo tibbiyotida urug'lari antispastik, uxlatuvchi, qusishga qarshi va antelmintik sifatida ishlatiladi. O'rta Sharq va Shimoliy Afrikada abort qiluvchi vosita sifatida ishlatilgan. Xuddi shu maqsadlar uchun G'arbiy Evropada ham ishlatiladi. Xalq tabobatida isiriqning yer

ustki qismining qaynatmasi (*decoctum herbae Pegani harmalae*)dan teri kasalliklarida, bodni davolashda vanna qilish yo'li bilan foydalanish tavsiya etilgan. Shuningdek, isiriqdan tayyorlangan qaynatma va damlamalar (*infusa et decocta herbae Pegani harmalae*)dan bezgak, tutqanoq, nevrasteniya, shamollash bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarda foydalaniladi. Isiriqdan tayyorlangan qaynatma bilan og'iz chayiladigan bo'lsa, og'iz bo'shlig'i va tomoqning shamollashiga barham beriladi. Abu Ali ibn Sino isiriqni quymich asablari shamollaganida, tizza va suyaklar qaqshab og'riqanida, og'riq qoldiruvchi omil (*species analgeticae*) sifatida ishlatishni tavsiya etgan. U isiriqdan kuchli siydik haydovchi omil (*species diureticae*) sifatida foydalangan. Isiriqning sut shirasiga 10 kun davomida shimdirilgan bir tutam paxta yoki junli mato qichima bilan og'riqan bemorlarga surtilsa, ular anchagina taskin topishi haqidagi ma'lumot buyuk ensiklopedist olim Abu Rayhon Beruniyning "Kitob as-saydana fit-tibb" asarida keltirilgan. Isiriq va zig'ir urug'ining qaynatmasi (*decoctum seminum Pegani harmalae et seminum Lini*) nafas olishining qiyinlashishida, qalampir urug'i qaynatmasi (*decoctum seminum Pegani harmalae et seminum Piperis*) bilan birga zahm, bod kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Ilmiy tibbiyotda isiriqning dorivor preparatlari (*praeparatum herbae Pegani harmalae*) qo'l, oyoq va boshqa joylarning doyim titrab turishi hamda tutqanoq kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Isiriqning dorivor preparatlari uxlatuvchi ta'sirga ham ega. Isiriq tutuni bilan xonalarni tutatish sharq xalqlari orasida odat tusiga kirgan. Bu esa uy-joylarni dezinfeksiya qilish bilan birga xona havosini tozalaydi.

Bundan tashqari isiriqdan olingan [alkaloidlar](#) ekstrakti (*extractum Pegani harmalae*)ning [grippning](#) oldini olish borasidagi fundamental tadqiqotlar e'lon qilingan; isiriq tarkibidagi [alkaloidlarning shishlarga](#) qarshi samarali vosita ekani isbotlangan; isiriq [alkaloidlarining](#) zararli [mikroorganizmlarning](#) rivojlanishini to'xtatishi ma'lum qilingan. Isiriq tutatilganda α -pinen, [limonen](#) va stirenlar ajraladi va bu birikmalar [mikroorganizmlarni dezinfeksiya](#) qilish xususiyatiga ega. Garmalin va garmin (isiriq) tibbiy maqsadlarda ishlatilmaydigan, xavfli [psixotrop modda](#) deb topilgan. Isiriq [Rossiya va Belarus kabi](#) davlatlarda davlat nazorati ostida bo'lishi shartligi belgilangan [giyohvand vositalari](#) ro'yxatiga kiritilgan.

O'zbek xalq tabobatida azaldan isiriqning o'z o'rnini bor. Ota-bobolarimiz ishlatib kelgan dorivorlarni o'z joyida, me'yorida, aql bilan qo'llash foydadan xoli emas. Sovet davrida eskilik sarqiti deya, taqiqlarga uchragan isiriq o'simligi sharq xalqlari, jumladan o'zbek xalq tabobatida muhim ro'l o'ynaydi. Zero, ota-bobolardan, momohavolardan qolgan merosimizni asrash bizning burchimiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://zarnews.uz/uz/post/isiriq-tutuni-inson-organizmiga-turli-viruslarning-kirishiga-yol-qoymaydi>.

2. <https://xalq-tabobati.uz/uy/227/muhokamadagi-masalalar/shifokorlar-va-tabiblar-ortasida-soglom-raqobat-bolishi-lozim-xalq-tabobati-assotsiatsiyasi-raisi/>
3. <https://urmon.gov.uz/press-center/news/isiriq-yuqumli-kasalliklarga-qarshi-kurashda-besamar-vositami?lang=uz>
4. Isiriqning hali ko'p siri, <https://soglom.uz/archives/3099?imlo=1>
5. Maxmudov Zafar Mardanovich. (2024). DORIVOR VOSITALARI NOMENKLATURASINING TIPIK GURUHLARI VA ULARNING AHAMIYATI. *SCIENTIFIC JOURNAL OF APPLIED AND MEDICAL SCIENCES*, 3(5), 480–487. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/amaltibbiyot/article/view/10771>
6. Makhmudov Zafar Mardanovich, & Omonova Mokhigul. (2024). PERSONALITY IN TEACHING THE MODULE OF LATIN AND MEDICAL TERMINOLOGY IN THE MEDICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTION. *JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH*, 2(1), 425–435. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10595990>
7. Makhmudov Zafar Mardanovich. (2023). EFFECTIVE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING PRACTICAL CLASSES OF THE SUBJECT "LATIN LANGUAGE AND MEDICAL TERMINOLOGY". *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(3), 369–375. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10049518>
8. Makhmudov Zafar Mardanovich. (2023). ABOUT SOME METHODS OF TEACHING LATIN IN MEDICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. "XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" Nomli Respublika Ilmiy-amaliy Konferensiyasi, 1(10), 245–249. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10049492>
9. Makhmudov, Z. ., Tuychiyev, K., & Usmanov, S. . (2023). SOME OF THE MOST USED FORMS OF MEDICINE IN MEDICAL PRACTICE - THE USE OF TABLETS AND SOLUTIONS. *Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences*, 2(13), 20–26. извлечено от <http://econferences.ru/index.php/tafps/article/view/7225>
10. Makhmudov Zafar Mardanovich, & Akramov Rustambek Ashraf o'g'li. (2024). LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA FANINI CHET TILI SIFATIDA O'RGATISH. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI | JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION*, 3(9), 38–41. Retrieved from <https://mudarrisziyo.uz/index.php/innovatsiya/article/view/1524>

11. Maxmudov, Z. (2023). Lotin tili va tibbiy terminologiya darslarida yunon klinik va farmatsevtik atamalarining qo'llanilishi. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (9), 263-269.
12. Maxmudov, Z. M. (2022). Lotin tili va tibbiy terminologiyani o'rganishda o'zbek tili grammatikasining o'rni. *Science and Education*, 3(11), 756-759.
13. Maxmudov Zafar Mardanovich. (2023). LOTIN TILINING ZAMONAVIY TILLARGA BEVOSITA VA BILVOSITA TA'SIRI. *Research Focus International Scientific Journal*, 2(6), 132–136. Retrieved from <https://refocus.uz/index.php/1/article/view/288>
14. Qurbonova, Z., & Maxmudov, Z. (2023). LOTIN TILIDA KLINIK TERMINLARNING TO'G'RI QO'LLANISH YUZASIDAN FIKRLAR. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(3 Part 3), 23–27. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/11503>
15. Maxmudov Zafar, & Normurodova Sohiba. (2023). KUNDALIK TURMUSHA KENG QO'LLANILISHDA BO'LGAN SUYUQLIKLARNI IFODALOVCHI DORI SHAKLLARI HAQIDA CHET EL ILMIY NASHRLARIDAN OLINGAN FIKRLAR. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8035529>
16. Maxmudov, Z. M. Retsept yozishda duch kelinadigan ayrim muammolarning qonuniy yechimi va amalda qo'llash haqida ba'zi mulohazalar, "O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar" mavzusidagi.
17. Zafar Mardanovich Maxmudov, & Bobur Salimovich Sharipov (2021). LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK TAMOYILLARI VA UNING ASOSI HAQIDA FIKRLAR. *Academic research in educational sciences*, 2 (6), 1028-1033. doi: 10.24412/2181-1385-2021-6-1028-1033
18. Maxmudov, Z., Sharipov, B., & Bo'riyev, D. (2023). TIBBIYOT UNIVERSITETLARIDA LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA FANINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Science and Innovation in the Education System*, 2(1), 5–10. извлечено от <http://www.econferences.ru/index.php/sies/article/view/3158>
19. Omonova, M., & Makhmudov, Z. (2023). Modern signs of using the quince plant in folk medicine. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(4), 41-45.
20. Makhmudov Zafar Mardanovich, The place of problematic and heuristic methods in the process of teaching latin and medical terminology – PhilPapers <https://philpapers.org/rec/MARTPO-200>